

JADIDLAR HARAKATINING ILM-FAN, TA'LIM VA MATBUOT YO'NALISHLARIDAGI ISLOHOTLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada yangi ma'rifatchilik harakati vakillarining tegishli sohalaridagi rivojlanishga qo'shgan hissasi yoritilgan. Xususan, o'qitish jarayoni, bilim berish metodlari, o'quv adabiyotlarini yaratish, shuningdek, bosma nashrlar, sahna san'ati va zamonaviy adabiyot sohalaridagi faoliyatlari tarixiy manbalar asosida tahlil etilgan hamda ilmiy-nazariy jihatdan yondashilgan.

Kalit so'zlar: jadid, harakat, o'qitish tizimi, taraqqiyot, ta'lim, tarbiya, darslik, matbuot, sahna san'ati, teatr, kutubxona.

РЕФОРМЫ ДВИЖЕНИЯ ДЖАДИДОВ В ОБЛАСТИ НАУКИ, ОБРАЗОВАНИЯ И ПРЕССЫ

Аннотация. В данной статье освещён вклад представителей нового просветительского движения в развитие соответствующих сфер. В частности, на основе исторических источников и с научно-теоретическим подходом проанализированы такие аспекты, как учебный процесс, методы преподавания, создание учебной литературы, а также деятельность в области печатных изданий, сценического искусства и современной литературы.

Ключевые слова: джадид, движение, система обучения, прогресс, образование, воспитание, учебник, печать, сценическое искусство, театр, библиотека.

REFORMS OF THE JADID MOVEMENT IN SCIENCE, EDUCATION AND THE PRESS

Annotation. This article highlights the contribution of representatives of the new enlightenment movement to the development of relevant fields. In particular, the study analyzes, based on historical sources and a scientific-theoretical approach, aspects such as the teaching process, educational methods, the creation of textbooks, as well as activities in the fields of print media, performing arts, and modern literature.

Keywords: Jadid, movement, education system, progress, teaching, upbringing, textbook, press, performing arts, theater, library.

Jadidchilik harakati ilk bor XIX asrning 1880-yillarida Qrimda shakllandi. 1890-yillardan boshlab esa u Markaziy Osiyoga keng tarqala boshladi. Dastlab bu harakat madaniy sohada yuzaga kelgan bo'lib, uning vakillari taraqqiyotga erishish uchun kurashni, turkiy tillarni rivojlantirish, adabiyotning boyitilishi, dunyoviy fanlarga e'tibor qaratish, ilm-fan yutuqlaridan foydalanish va ayollar hamda erkaklar o'rtasidagi tenglikni ta'minlash zarurligini ilgari surdilar.

Jadidlar, ta'lim tizimini zamon talablariga mos holda isloh etish, yosh avlodga diniy bilimlar bilan bir qatorda dunyoviy fanlarni ham o'rgatish kerakligini ta'kidladilar. Ular musulmon maktab va madrasalarida yoshlarni nafaqat diniy, balki arab, fors va rus tillari, tibbiyot, kimyo, arifmetika kabi fanlar bilan ham tanishtirish lozim deb hisoblashgan.

Jadidchilik harakatining asoschisi, Qrim-tatar ziyolisi Ismoil G'aspirinskiy bo'lib, u diniy va dunyoviy bilimlarni chuqur o'rgangan, jahon taraqqiyoti bilan yaqindan tanishgan va bir necha xorijiy tillarni mukammal bilgan. U turkiy xalqlarning rivojlanish yo'lini izlar ekan, 1884-yilda Qrimdagi Boqchasaroy shahrida birinchi jadid maktabini ochdi. O'zining tuzgan ta'lim dasturi asosida darslik yaratdi va "usuli savtiya" (harf tovushi asosidagi yangi uslub) degan metodni joriy etdi. Shu uslub asosida 40 kun ichida 12 nafar bola savod chiqarishga muvaffaq bo'ldi. 1888-yilda u "Rahbari muallimin yoki muallimlarga yo'ldosh" nomli kitobini ashr ettirdi. Bu asarda yangi usuldagi maktablar faoliyati, darslar qanday o'tilishi, sinflar jihozlanishi, dars jadvali, ta'til va imtihon masalalari yoritilgan.

Jadidchilikning Markaziy Osiyoga yoyilishi tasodifiy emas, balki mintaqadagi ijtimoiy-siyosiy qarama-qarshiliklarning natijasi edi. Harakatning birinchi bosqichi 1893-yildan boshlab ma'rifatparvarlik shaklida kechgan bo'lsa, ikkinchi bosqichi 1917-yildan siyosiy tus ola boshladi va bu harakat 1935–1938-yillargacha davom etdi.

Jadidlar o'z dasturlarida quyidagi yo'nalishlarni ustuvor deb bilganlar:

- Yangi usuldagi maktablar tarmog'ini kengaytirish;
- Iqtidorli yoshlarni xorijga tahsil olish uchun yuborish;
- Ma'rifiy jamiyatlar va teatr guruhlarini tashkil etish;
- Gazeta, jurnal va darsliklarni nashr etish;
- Xalq ongini yuksaltirish orqali Turkistonda milliy demokratik davlat qurish.

Jadidlar Sharq va G'arb madaniyati yutuqlarini chuqur o'rganishga harakat qildilar. Tashqi mamlakatlarga chiqib, ularning ta'lim tizimlarini o'rganib, o'z yurti taraqqiyoti uchun foydali tajribalarni olib kelishga intildilar. Shu bois, ular avvalo ta'lim tizimini isloh qilishni bosh maqsad qilib qo'ydilar. Yangi usuldagi maktablarda o'quv jarayoni Yevropa andozalari asosida tashkil etilgan bo'lib, arifmetika, tarix, geografiya, tabiatshunoslik kabi fanlar bilan birga islom dini asoslari ham o'qitilgan. Dastlab, bu maktablarda Qozon va Orenburgda chop etilgan darsliklardan foydalanilgan.

Jadidchilik g'oyalarining keng yoyilishida Ismoil G'aspirinskiyning "Tarjimon" gazetasi muhim rol o'ynadi. 1893-yilda Buxoro amirligida birinchi yangi usul maktabi ochildi. 1898-yilda Qo'qonda Salohiddin domla, 1899-yilda Andijonda Shamsiddin domla va Toshkentda Mannonqori o'z maktablarini tashkil etdilar.

Ular quyidagi islohotlarni amalga oshirishga harakat qildilar:

- Mazmunsiz va foydasiz darslarni jadvaldan chiqarish;
- Qur'oni Karim, Hadislar, ularning tarjimalari va islom tarixini o'qitish;
- Dunyo fanlariga qarshilik ko'rsatmasdan, arifmetika, tarix, geografiya, tibbiyot, geometriya, mantiq, falsafa kabi fanlarni joriy etish;
- Har bir ishlarda islomni ilk davridagi qadimiy sof ko'rinishiga qaytarish.

Marjoniy va uning tarafdorlari bo'lgan o'sha davrning jadidlari musulmon taraqqiyparvarlaridan edilar, ular madrasalarda diniy darslar bilan bir qatorda qadimiy islom madaniyati davridagidek dunyoviy darslarni o'qitishni shart qilib qo'ydilar. Biroq, qadimistlar va amirning reaksiya siyosati natijasida ta'qibga uchragan Marjoniy Buxorodan chiqib ketishga majbur bo'ldi. Uning maslakdoshlaridan ko'pchiligi zindonga tashlanib, orqalariga 75 darra urilgach, ular tavba qilib, qaytib bunday ishlarni qilmaslikka va'da berdilar.

Jadidlar 1906-yilda "Taraqqiy" deb nomlangan gazeta nashr ettirib, o'z g'oyalarini tarqata boshladilar, oradan ko'p o'tmay, "Xurshid", "Shuhrat" singari yangi gazetalar dunyo yuzini ko'rdi. Markaziy Osiyoning turli shaharlarida jadid maktablari bodroqdek ochilib, ularda diniy ilmlar bilan birgalikda dunyoviy bilimlar ham keng targ'ib qilindi. Jadidlar nima haqida gapirishmasin, hammasi yangi nafas, yangi g'oya edi, proletar mafkurasi ham, ishchilar sinfi ham yo'q edi, tabiat birlamchi deguvchilarning mafkurasini deyarli hech kim tushunmas, biladiganlar esa juda ozchilikni tashkil qilar edi. Shuning uchun jadidchilikning yangi g'oyalar bilan paydo bo'lib, ruhoniylarga, hukmron sinflarga qarshi turishi, madaniyatni yaratishi, bir so'z bilan aytganda, yangilik edi.

Turkiston jadidlarini birlashtirishda "O'rta Osiyo jadidlarining otasi" deb tan olingan Mahmudxo'ja Behbudiy (1875–1919) ning xizmati katta bo'ldi. U 1875-yilning 19-yanvarida Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida tug'ilgan. Dastlab Samarqand, so'ngra Buxoro madrasalarida tahsil olib, imom-xatib, qozi, keyinchalik muftiy darajasiga ko'tarildi. Behbudiy Markaziy Osiyo jadidchilik harakatining asoschisi va yo'lboshchisi sifatida tanilgan. Behbudiyning tashabbusi bilan o'z otasi sharafiga "Behbudiya kutubxonasi" deb atalgan kutubxona tashkil qilindi.

Jadidlar o'zlarining barcha da'vatlari va shiorlari xalq ongidan joy olmas ekan, ular qabul qilinmasligini va kishilar hayotini o'zgartira olmasligini tushunardilar. Ular o'z g'oyalari va qarashlarini targ'ib qilishning eng samarali yo'lini topishdi-milliy teatr tashkil etildi. 1911-1913-yillarda Turkistonning turli shaharlarida ular tomonidan ochilgan teatrlar Jadidlar mafkurasini targ'ib qilishning juda qudratli ommaviy vositasiga aylandi. Aholining savodxonlik darajasi past bo'lgan sharoitda sahnadan jaranglagan og'zaki nutq va aktyorlarning harakati Jadidlar mafkurasining xalq qalbiga kirib borishiga imkon berdi. Ular mustamlakachi ma'muriyat senzurasidan va ruhoniylarning hushyor nazaridan qochib, o'zbek tilining serma'noligidan mahorat bilan foydalangan turkiylarning o'ziga xos tilidan foydalanishdi.

Xalqqa manzur bo'lgan "Padarkush" pyesasini harakat yetakchisi M.Behbudiy yozgan edi. Uning pyesasida har qanday yo'l bilan boyishga intilishning salbiy ta'siri ishonarli ravishda ochib berildi, yot madaniyatning farzandlar bilan ota-onalar munosabatiga salbiy ta'siri ko'rsatildi. Jadidlarning pyesalarida kishilarni behuda o'tgan baxtsiz hayoti, ayollar va bolalarning huquqlari buzilishi to'g'risida so'z borardi.

1911-yildan 1917-yilgacha jadidlar teatrlarida 25 ga yaqin pyesa qo'yilib, ular butun Turkistonda shuhrat topdi. Spektakllar bepul namoyish etilar va ko'plab kishilar tomosha qilardilar. Ularning ko'pchiligi uchun teatr ilk madaniy manba va dastlabki siyosiy maktab bo'lib qoldi.

Munavvarqori Abdurashidxonov (1878–1931) 1904-yildan boshlab o'lkadagi ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy harakatlarning faol ishtirokchisi jadid maktablari ochilishining tashabbuskori va amaliyotchisi, milliy gazeta va jurnallar asoschisi, muharriri hamda jadid teatri targ'ibotchisi bo'lgan.

Munavvarqori maktablar uchun "Adibi avval", "Adibi soniy", "Yer yuzi" kabi darsliklarni yaratdi. Abdulla Avloniy 1878-yil Toshkent shahrida hunarmandlar oilasida tug'ildi.

Abdulla Avloniy o'lkada ta'lim, matbuot, teatr sohalarining rivojlanishiga katta hissa qo'shib, 1907-yil "Shuhrat" gazetasiga asos soldi.

O'zi tashkil qilgan yangi usul maktabi uchun "Birinch muallim", "Ikkinchi muallim", "Turkiy guliston yoxud axloq" kabi darsliklarni yaratdi.

1910-yilda Buxoroda mudarris Hoji Rafiy, Mirza Abduvohid, Hamidxo'ja Mehriy, Usmonxo'ja va Muhammaddin maxdum kabilar "Tarbiyayi atfol" ("Bolalar tarbiyasi") jamiyatini tashkil qilib, 1911-yilda 15 nafar, 1912-yilda esa 30 nafar talabani Turkiyaga o'qishga yuborganlar. Andijonlik Mirkomil Mirmo'minboyev o'z hisobidan yoshlarni chet elda talim olishi uchun "Tarbiyayi atfol" ("Bolalar tarbiyasi") jamiyatini katta miqdorda mablag' ajratgan.

Millatparvar jadidlar Rossiyada fevral inqilobi amalga oshganidan so'ng Turkistonda paydo bo'lgan demokratik erkinlik sharoitida rus demokrat ziyolilari bilan hamkorlikda universitet tashkil etish harakatida turgan bir paytda oktabr davlat to'ntarishi yuz berdi va yangi sovet hukumati - Turkiston Xalq Komissarlari soveti tuzildi. Ushbu hukumatning 1918-yil 16-martdagi Toshkentda Turkiston xalq universitetini tashkil etish haqidagi Maorif Xalq Komissariatiga bergan buyrug'ida faqat rus va rus tilida so'zlovchi aholining oliy ta'limga bo'lgan ehtiyoji qondirilishi e'tiborga olindi. Musulmonlarning bu sohadagi ehtiyoji va jadidlarning universitet tashkil etish borasida qilgan amaliy ishlari e'tiborga olinmadi. Ushbu buyruq asosida rus ziyolilari jadal ishga kirishadi. Bundan xabar topgan Munavvarqori Abdurashidxonov 9-aprel kuni zamonaviy oliy ta'lim tarafdorlari bo'lgan jadidlarning faol guruhini o'z uyiga to'plab, vaziyatni tushuntirdi va universitet tashkil etish g'oyasini o'rta qo'yadi. Yig'ilganlar uning rahbarligida 9 kishidan iborat "Musulmon xalq dorilfununining tashkilot komissiyasi"ni tuzdilar. Bu komissiya hukumatning qaroriga qarama-qarshi ravishda demokratik ruhda tuzilgan edi. Shuning uchun ham komissiya asosan ikki yo'nalishda, ya'ni o'zini hukumatga tan oldirish va bevosita dorilfununni tanjil etish kabi ishlar bilan mashg'ul bo'ldi.

Milliy oliy ta'lim tizimini shakllantirish yo'lida jadidlar tashabbusi bilan qisqa vaqt ichida katta ishlar amalga oshirildi. Musulmon Xalq Dorilfununini tashkil etish maqsadida tashkilot hay'ati atigi bir oy ichida o'nta majlis o'tkazdi. 1918-yil 2-may kuni bo'lib o'tgan yettinchi majlisda dorilfununni tashkil etish bo'yicha komissiya Turkiston Xalq Universiteti sho'rosi va Xalq Maorifi Komissariyati tomonidan rasman tan olindi. Oradan bir kun o'tib, 3-may kuni komissiyaning navbatdan tashqari kengaytirilgan yig'ilishida rahbariyat saylovi bo'lib o'tdi. Munavvarqori Abdurashidxonov dorilfunun raisi (rektori), Iso To'xtaboev birinchi muovini, Burxon Habib ikkinchi muovini etib saylandi. Abdusamiqori Ziyoboev xazinador, Muxtor Bakir esa sarkotib etib belgilandi.

Musulmonlar uchun mo'ljallangan ushbu oliy o'quv yurti g'oyasini ruslar uchun ochilgan Turkiston Xalq Universiteti ham qo'llab-quvvatladi. Universitet rahbari professor O.V. Popov 6-may kuni bo'lib o'tgan majlisda bu dorilfununni "ikkinchi" emas, "bitta umumiy dorilfunun" sifatida e'tirof etish zarurligini ta'kidladi. Shu bilan, Musulmon Xalq Dorilfununi Turkiston Xalq Universiteti tarkibiga sho'ba sifatida birlashtirildi.

1918-yil 12-may kuni Musulmon Xalq Dorilfununining tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Eski shahardagi Vikula Morozov sobiq do'konida joylashgan binoda o'tkazilgan bu marosimda hukumat vakillari, komissarlar, ikki dorilfununning rahbarlari ishtirok etdilar. Munavvarqori o'z nutqida musulmon xalqining yillab zulmda yashaganini eslab, ozodlikka erishilganini e'tirof etdi. U ilm-fanga ehtiyoj oshganini aytib, yig'ilganlarni hurriyat yo'lida jon berganlar xotirasiga sukut saqlashga chaqirdi. Shu daqiqalarda harbiy musiqa yangradi, Kalomidan oyatlar o'qildi, duo qilindi.

Bu sana – 1918-yil 12-may – o'zbek xalqining milliy oliy ta'lim muassasasi vujudga kelgan muhim kun sifatida tarixga kirdi. Aynan shu dorilfunun bugungi O'zbekiston Milliy universitetining ilk bosqichi bo'ldi.

Milliy g'oya xalqni birlashtiruvchi kuchdir. U insonda milliy iftixor, o'z yurtiga sadoqat, g'ayrat va shijoat uyg'otadi. Milliy g'oya asosida xalq ongida birlik, umumiy manfaatlarni ko'zlash va ular uchun kurashishga bo'lgan intilish paydo bo'ladi. Bu g'oya san'at, adabiyot, musiqa va teatr orqali xalq ongiga singdiriladi.

Turli mamlakatlarda yuzaga kelgan ma'rifatchilik harakatlari milliy xususiyatlarga ega bo'lsada, ular o'rtasida umumiy jihatlar ham bo'lgan. Xususan, Turkistonda jadidlar mavjud tuzumning iqtisodiy,

ijtimoiy va huquqiy kamchiliklariga qarshi kurashdilar. Ular ta'lim va tarbiya orqali xalq ongini yuksaltirish, axloqiy va ma'naviy qadriyatlarni tiklashga intildilar.

Jadidlarning harakat dasturidagi asosiy yo'nalishlar quyidagilardan iborat edi:

- Diniy mutaassiblik va fanatizmga qarshi kurash;
- Eski uslubdagi, o'rta asr maktablarini isloh qilib, Yevropa andozasidagi yangi usul maktablarini ona tilida ta'lim berish asosida tashkil etish;
- O'zbek adabiy tilini zamonaviylashtirish, matbuot erkinligi uchun kurashish;
- Xalq uchun tushunarli badiiy asarlar va teatr asarlarini yaratish;
- Ayollarni paranjidan chiqarib, ularni ta'lim-tarbiyaga jalb qilish, oilada islohotlar o'tkazish;
- Mahalliy boylar va savdogarlarni rus burjuaziyasi bilan tenglashtirish, ularga teng iqtisodiy va siyosiy huquqlarni ta'minlash;
- Mustamlakachilik siyosatiga qarshi kurashish va uni isloh qilish.

Jadidlar uchun bilim va ma'rifat asosiy qurol bo'lgan. Ular shu vosita bilan jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishni ta'minlashni maqsad qilganlar. Natijada, ular o'zbek xalqining ma'rifatparvar, ziyoli va kurashchi qatlamiga aylanishdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Исмаил Гаспиринский. Туркестан. Сборник статей. Ташкент. Шарк. 2005.
2. Yangi gap.\\ Turkiston. 1923. 7-fevral.
3. Inqilob jurnali. 1922-yil 3-son.
4. Farxodjonova N.F."Jadid harakati namoyondalarining jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotiga ta'siri". Xorazm. Ma'mun akademiyasi axborotnomasi. 11\3. 2022. B-84-85.
5. Mahmudxuja Beubudiy. Tanlangan asarlar. T.: Ma'naviyat, 1997, 163-bet.
6. Qosimov B. Milliy uyg'onish. T.: Ma'naviyat, 2002, 20-bet.
7. Kasimov A. A., Axrorov I. D. The methodical principles of organizing students independent work in mathematics //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 11. – C. 38.
8. Axrorov I. Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlari //Talqin va tadqiqotlar. – 2023. – T. 1. – №.
9. Donyorovich A.I. Jadidlarning darsliklar yaratish faoliyatiga oid ayrim mulohazalar //Conferencea. – 2023. – C. 118-123 \
10. TURKISTONDAGI JADIDCHILIK HARAKATIGA MAHMUDXO'JA (Qo'qon DPI. Ilmiy xabarlar 2025-yil 2-son) 9-mart.
11. The New Stage of Enlightenment in Turkestan. International Journal of Pedagogics 2025.-192-195